

AKSIYADORLIK TIJORAT "ALOQABANK"

BAYONNOMA / №3.

2026-yil "20" aprel.

Andijon shahri.

Raislik qiluvchi: AT "Aloqabank" Andijon HKXKM direktori J.G'aniyev

Ma'ruzachilar: U.Shukrullayev – Yuridik xizmat sho'basi boshlig'i

Ishtirok etdilar: AT "Aloqabank" Andijon HKXKM xodimlari

KUN TARTIBI:

"Banklarda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish chora-tadbirlari.

Yig'ilishni AT "Aloqabank" Andijon HKXKM direktori J.G'aniyev ochib berdi va quyidagilarni bayon qildi:

"Hurmatli hamkasblar! Bugungi kunda, har bir soha va tarmoq xodimlarining o'z ishiga nisbatan sitqidildan yondashuvi, o'zlariga yuklatilgan vazifalarni birinchi navbatda halollik va adolat mezonlari ta'moyillari asosida bajarishlari hal qiluvchi o'rin tutadi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Yig'ilish ishtirokchilarning diqqat-e'tibori bank tizimida korrupsiya, ta'magirlik va poraxo'rlik kabi zararli illatlarga qarshi kurashishda o'zaro hamkorlik qilish masalalariga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'z so'zlarini yakunladi.

Shundan so'ng Yuridik xizmat sho'basi boshlig'i U.Shukrullayev so'z chiqib, Iqtisodiyotning muhim bo'g'ini bo'lmish bank-moliya tizimidagi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish, bunday salbiy holatlarning oldini olish, kelib chiqish sabablarini tahlil qilish, bu boradagi korrupsiogen omillarni bartaraf etish masalalari dolzarblik kasb etib, boshqa sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashishning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bank faoliyatidagi korrupsiya turli shakllarda, jumladan, poraxo'rlik, pul yuvish, xarid jarayonidagi savdolari va manfaatlar to'qnashuvida namoyon bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda Korrupsiya murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, unga qarshi kurashish uchun alohida choralarni qo'llashdan tashqari, ushbu faoliyat kompleks-majmuaviy tarzda amalga oshirilishi, faoliyatning maqsadi va obykti sifatida alohida olingan korrupsioner emas, balki ushbu hatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi omillarni bartaraf qilishda namoyon bo'ladi.

Shuningdek, bank xodimlari faoliyatlarida lavozim yo'riqnomalariga qat'iy rioya etish, bank mijozlari, tadbirkorlar va omonatchilarning xaq-xuquqlari

poymol qilinishiga mutlaqo yo'l qo'ymaslik, mehnat intizomi, ichki ish-tartib qoidalari, "Odob-axloq qoidalari" normalariga qat'iy va og'ishmay rioya qilish, korrupsiyaviy holatlarning har qanday turiga yo'l qo'ymaslik, ta'magirlik va poraxo'rlikka qarshi keskin kurash olib borish, salbiy illatlarga batamom chek qo'yish lozim deb o'z ma'ruzasini yakunladi..

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I:

1. Yig'ilish raisi J.Ganiyev hamda ma'ruzachi U.Shukurullayevning nutqi ijro va nazorat uchun qabul qilinsin.

2. Andijon HKXKM Kredit komissiyasi, Kredit bo'limi xodimlari shuningdek, mijozlarga bevosita xizmat ko'rsatadigan barcha mas'ul xodimlar zimmasiga kredit rasmiylashtirish, buxgalteriya, kassa, valyuta, chakana xizmatlar amaliyotlarini bajarish, xodimlarni ishga qabul qilishda amaldagi normativ hujjatlar talablariga qat'iy rioya qilish, qonunbuzarlik holatlariga yo'l qo'ymaslik, xodimlarning bilim va malakasini oshirish borasida muntazam o'z ustida ish olib borish vazifasi yuklatilsin.

3. Xodimlarning ishga bo'lgan ma'suliyatini oshirish, ular tomonidan mijozlarga xizmat ko'rsatishlarida qiyinchilik tug'dirmaslik, masalalarning yechimini topishda ko'maklashish, shuningdek, mijozlarning murojaatlarini o'z vaqtida va har tomonlama ko'rib chiqilishi ta'minlansin.

4. Jismoniy xavfsizlikni ta'minlash sho'basi yetakchi menejeri (A.Abdumajidov) zimmasiga:

- ish vaqtida barcha xodimlarning hatti-harakatlarini qat'iy nazorat qilishni kuchaytirsin;
- aniqlangan har bir holat bo'yicha markaz rahbariyatini oldindan xabardor qilinsin.

5. Ish yuritish sho'basi boshlig'i (N.Sodikova) zimmasiga xodimlar tomonidan "Ichki mehnat tartibi qoidalari" hamda "Bank xodimining kasb odob-ahloqi Kodeksi" ga rioya qilinishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

6. Yuridik xizmat sho'basi boshlig'i (U.Shukurullayev) zimmasiga:

- bankda rasmiylashtirilayotgan barcha hujjatlarning qonuniyligini nazorat qilish;
- bank bilan mijoz, ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi munosabatlarni qonuniy tahlil qilish hamda fuqarolardan kelgan murojaatlarga o'z vaqtida qonuniy javob berish vazifalari yuklatilsin.

Yig'ilish qarori ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Yig'ilish raisi:



J.G'aniyev